



PAPER

## O'ZBEKISTONDA SUG'URTA BOZORINI RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARISH MUAMMOLARI

Ibragimov Bahrom Bahodirovich<sup>1,\*</sup> and Sapayev Maxsudbek Karimovich<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti Biznes va boshqaruvi kafedrasi o'qituvchisi

\*ibragimov@gmail.com

### Abstract

Ushbu maqolada mamlakatimizda sug'urta bozorini rivojlantirish hamda sug'urta faoliyatini tartibga solishdagi muammolar tadqiq etilgan.

**Key words:** sug'urta, sug'urta bozori, sug'urtalovchi, sug'urtalanuvchi, innovatsiya, raqobat, moliya.

### Kirish

Bugungi kunda sug'urta kompaniyalari tomonidan nafaqat mamlakatimizdagi, balki xorijiy mijozlarni ham ishonchini qozona oladigan sug'urta xizmatlarining keng turlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, mintaqaviy sug'urta xizmatlarini kengaytirish, sug'urta kompaniyalari moliyaviy resurslarini samarali boshqarish milliy sug'urta bozorini rivojlantirishdagi asosiy muammolar dan biridir. Bu holat mazkur mavzuning dolzarbligini ifodalaydi. Sug'urta insoniyat tarixining tadrijiy rivojlanishi bosqichlarida moliyaviy munosabatlarning ajralmas tarkibiy qismi sifatida iqtisodiyotga ta'sir etuvchi muhim omil bo'lib kelgan.

Zamonaviy davrdagi globallashuv jarayonida sug'urta bozorining innovatsion rivojlanishi jadal o'zgarishlar qamrovida kechayotganligi mazkur institut faoliyatini nazariy-amaliy tadqiq etish dolzarb ekanligini anglatadi. Sug'urta bozori har qanday mamlakat iqtisodiyotining asosiy segmenti hisoblanadi, ayni vaqtida, bevosita uning ravnaqiga ham xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda qayd etish lozimki, sug'urta faoliyati o'ziga xos tarzda shakllangan va keng qo'llanilayotgan ijtimoiy hodisa bo'lib, barqarorlik omili sanaladi. Mamalakat sug'urta bozori rivojini prognozlash o'z navbatida, biznes sub'ektlari va aholi manfaatlari himoyasini kafolatli darajada ta'minlash instituti sifatida sug'urta faoliyatini rivojlanish yo'nalişlarini tadqiq etish zaruratini keltirib chiqardi.

Yurtimizda sug'urta bozorini rivojlantirish borasida amalga os-hirilayotgan islohotlar va chora-tadbirlar muayyan darajada, mamlakat sug'urta bozorini rivojlantirishga xizmat qilayotgan bo'lsada, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotgan sharoitda sug'urta bozorini rivojlantirish borasida aniq chora-tadbirlarni

ishlab chiqish sug'urta munosabatlarini rivojlantirishga va mamlakatda ishlab chiqarish uzlusizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ma'lumki, sug'urta bozorining muhim sub'ekti va uning ishtirokchilaridan biri davlat hisoblanadi.

Muhim vazifalarini bajarish uchun avvalo sug'urta sohasida jahon talablariga javob beradigan xodimlarni tayyorlash va ularni amaliyotga tayyorlash, aholini sug'urta to'g'risidagi axborotlar dan xabardor qilib borish muhim hisoblanadi. Amalda sug'urta bozorining rivojlanishiga to'siq bo'ladijan ko'plab sabablar mavjud bo'lib, bunday sabablardan biri monopol holatning yuzaga kelishidir. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda monopoliyaning yuzaga kelishiga nisbatan xavfsiz holat sifatida bir tarmoqda faoliyat ko'rsatuvchi kompaniyalar soni kamida o'n va undan ortiq bo'lib, bunda bu bozordagi bir kompaniyaning hissasi sug'urta xizmatlarini sotish bo'yicha 31 foizdan oshmasligi, ikki kompaniyaning hissasi 44 foizdan oshmasligi, uchta kompaniyaning hissasi 54 foizdan oshmasligi va to'rtta kompaniya ulushi 64 foizdan oshmasligi kerak.

Bunday nisbat buzilgan holatda bu kompaniyalarga nisbatan davlat iqtisodiy sanktsiyalar qo'llaydi va ularning ishtirokini ushbu bozorda chegaralab qo'yadi. Sug'urta bozorini davlat tomonidan tartibga solishning elementlaridan biri bozordagi raqobatni sun'iy ravishda yo'qotish, ya'ni boshqa qatnashchilarni bu bozorga kirishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida ikki yoki undan ortiq kompaniyalarning o'zaro til biriktirishi va o'zaro kelishuvlariga yo'l qo'ymaslikdan iboratdir.

Raqobatning nosog'lom usul va vositalari bo'l mish tariflarni sun'iy ravishda oshirish yoki pasaytirish, sug'urtalanuvchilarga sug'urtaning ma'lum bir turi to'g'risida yoki ushbu turni amalga

oshiruvchi o'z raqobatchilar to'g'risida yolg'on ma'lumotlar berib, ularni arosatga qo'yish mumkin bo'lмаган holatlardir. Bunday holatlarga nisbatan davlat qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar vositasida doimiy qarshi choralar ko'rib borishi kerak.

O'zbekistonda davlatning sug'urta sohasi bo'yicha faoliyat keng ko'lamli bo'lib, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitidan kelib chiqib davlat aralashuvi samaradorligining yuqori bo'lishini ta'minlash uchun quyidagilarni amalgaga oshirish maqsadga muvofiq.

- sug'urta himoyasini ta'minlashda yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini o'zida mujassamlashtirgan mexanizmni ishlab chiqish;

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qoshida tashkil etilgan maxsus vakolati davlat organi bilan sug'urtachi sub'ektlar o'rtasidagi hamkorlik, muammoli masalalarni birqalikda hal etuvchi o'zaro manfaatdorlik asosida ishlovchi tuzilmali mexanizmni shakllantirish;

- sug'urta faoliyatiga doir qonunlar majmuasiga zarur o'zgartirishlar kiritish bilan qonunlarni takomillashtirib borish;

- milliy sug'urta bozorida raqobat muhitining yuzaga kelishini ta'minlovchi, soxta sug'urtachilar faoliyatiga chek qo'yuvchi huquqiy me'yorlarni ishlab chiqish hamda ularning tatbiq etilishini ta'minlash;

- sug'urta kompaniyalari barqaror faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlash vositasi sifatida soliq imtiyozlari va boshqa rag'batlantiruvchi huquqiy asoslarni takomillashtirib, ularning samarasini yuqori bo'lishiga erishish;

- sug'urtalovchilarining qimmatli qog'ozlar bozori, fond birjalaridagi to'g'ridan- to'g'ri faoliyatlarini rag'batlantirish;

- sug'urta sohasida xalqaro hamkorlik aloqalari kengayib boyayotgan hozirgi sharoitda tomonlar manfaatlarini o'zida aks etiruvchi sug'urta himoyasining umumiyligini qoidalarini ishlab chiqish;

- sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilish tizimini takomillashtirishda chet el investorlarining faoliyatini rag'batlantirishni nazarda tutib ish olib borishni yo'lga qo'yish;

- sug'urta faoliyati rivojlangan mamlakatlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish asosida xalqaro bozorga kirib borish va bu bozorda o'z o'rniiga ega bo'lishni maqsad qilib qo'yish;

- respublika sug'urta bozorida yangi sug'urta institutlari (anderrayterlar, aktuariylar, avariya komissarlari) ko'payishini rag'batlantirishdan iboratdir. Xorij tajribasida sug'urta va qayta sug'urta kompaniyalari har bir sug'urta turi bo'yicha alohida sug'urta anderrayterlariga ega bo'lib, biror marta ham bir anderrayter ikki xil sug'urta turi bilan shug'ullanmaydi.

Sug'urta munosabatlarini tartibga solishning erkinlashuvi jarayonlari dunyo sug'urta bozori globalashuvi sharoitida, xalqaro sug'urta xizmatlarining erkinlashuvi, sug'urta va qayta sug'urta kapitalining kontsentratsiyasi yirik transmilliy sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi raqobatning keskin kuchayishiga, natijada sug'urta va qayta sug'urting ko'plab yangi shakllari paydo bo'lishiga, sug'urta, bank va moliya kapitalining o'sishiga olib kelmoqda.

Sug'urtachilar faoliyati ustidan davlat nazorati tizimida bir qancha o'zgarishlar yuz bermoqdaki, bunda asosiy mavgeni davlatlararo integratsion kelishuvlar, xizmatlar savdosini to'g'risidagi bosh kelishuv egallanmoqda. Internet vositasidagi yangi informatsion muhitining paydo bo'lishi davlatlar o'rtasidagi chegaralarni buzib tashlab, sug'urta xizmatlarining misli ko'rilmagan darajalariga erishilmoxda. So'ngi yillarda dunyo sug'urta bozorining kengayishi kuzatilib, bunda birlashuv, globalizatsiya va integratsiya jarayonlarining kuchayganligini ko'rish mumkin. Sug'urta kompaniyalarining birlashuvi yoki yirik kompaniyalarning kichiklarini qo'shib olish holatlarining yuz berishiga asosiy sabablar quyidagilardan iborat:

Birinchidan, milliy va dunyo sug'urta bozorlari ishtiroychilari orasida yuqori darajadagi kapitalizatsiyaga ega bo'lgan

kompaniyalarining ko'pligi va ular o'rasida kuchli raqobatning mayjudligi.

Ikkinchidan, yirik tavakkalchiliklarni sug'urtalash va qayta sug'urtalashda katta miqdordagi kapitalga ega bo'lgan kompaniyalariga zarurat tug'ilmoqda. Sug'urtachilar qayta sug'urta kompaniyalarini tanlashda birinchi o'rinda ularning kapitali miqdoriga etibor qaratmoqdalar. 50 mln. dollardan kam kapitalga ega bo'lgan qayta sug'urta kompaniyalari o'z faoliyatlarini to'xtatishga majbur bo'lmoqdalar.

Uchinchidan, kompaniyada ish yuritishga ketadigan xarajatlarni kamaytirish maqsadi. Mutaxasislarning xulosalariga ko'ra, AQShda bir kompaniyaga sug'urta mukofotlari tushumini 10 mln. Dollarga ko'paytirish, ish yuritishga ketadigan xarajatlar milkorini 30 foizdan 10 foizgacha kamaytirish imkonini berar ekan. To'rtinchidan, moliyaviy barqaror hamkor hisobiga o'z reytingini ko'tarish ilinji. Birlashish va qo'shib olishlar natijasida yirik transmilliy sug'urta kompaniyalari hosil bo'lmoqda va ular xalqaro bozorda katta miqdordagi javobgarliklarni sug'urtalash va qayta sug'urtalashni amalgaga oshirmoqdalar. Boshqa sohalarda bo'lGANI kabi, sug'urta faoliyatida ham menejmentning yangi davri kirib kelmoqda. Bu yangi davr sug'urta kompaniyalari faoliyatining xavfsizligini ta'minlab berishi kerak. Sug'urta kompaniyalarining faoliyati xavfsizligini ta'minlash hozirgi zamon menejmentining asosiy funksiyalaridan biridir.

Kompaniya menejerining kompaniya faoliyatiga bo'ladijan xavflarni to'g'ri baholay olmaganligidan va bunga qarshi zarur choralarini ko'rмаганligi tufayli kompaniyaga sezilarli darajada zararlar etishi mumkin. Shuning uchun malakali menejer voqealar rivojining turli ko'rinishlarini hisobga olishi, shunday holatlar yuz berganda strategiya va taktikani tezda o'zgartirishni, zahira fondlarni ko'paytirishni rejalashtirib qo'yishi kerak. Sug'urta bozorining rivojlanishiga to'siq bo'ladijan omillardan biri bozorida tovla-machilikning avj olishidir.

Sug'urta tizimida Adjaster ham faoliyat ko'rsatadi. Adjaster -da'doni ko'rib chiquvchi va uni tartibga keltirishni takomillashtiruvchi shaxs hisoblanadi. Mamlakatimizda ushbu soha vakillari xizmatidan foydalanish keng yo'lga qo'yilmaganligi tufayli bu vazifani kompaniyalarning o'z xodimlari amalgaga oshirib kelishmoqda. Sug'urta risklarining professional baholovchilar bo'lgan syurveerlar, adjasterlar va aktuariylar faoliyatini yo'lga qo'yish mamlakatimizda qonuniy jihatdan mustahkamlandi, endi ushbu tuzilmalarni amaldaqi faoliyatini yo'lga qo'yish milliy bozorni rivojlantirish omillaridan biri bo'ladi.

## Xulosa

Tadqiqot natijalariga ko'ra, quyidagilar O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va jadal rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

- sug'urta sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, shu jumladan xalqaro tashkilotlarning standartlari va tavsiyalarini hamda ushbu sohadagi eng yaxshi jahon tajribalarini izchil joriy etish;

- sug'urta xizmatlari iste'molchilarini va sug'urta faoliyatining boshqa sub'ektlari huquqlari himoyasini kuchaytirish, aholining sug'urta savodxonligini va sug'urtaga bo'lgan ishonchini oshirish, sug'urta bozorining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash;

- yangi innovatsion sug'urta mahsulotlarini joriy etish va talaq yuqori bo'lgan an'anaviy mahsulotlarni rivojlantirish orqali ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlari hajmlarini, turlarini kengaytirish va sifatini oshirish;

- sug'urta faoliyatini tashkil etish va tartibga solish sohasida zamonaliviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, sug'urta xizmatlarining elektron turlarini faol joriy etish va rivojlantirish;

- sug'urta bozori mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, sug'urta sohasida ta'lrim berishning zamonaliviy usullarini qo'llash,

ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag‘batlantirish; milliy sug‘urta bozorining ijobiy imijini shakllantirish va yuqori darajada ushlab turish hamda investitsiyaviy jozibadorligini, shu jumladan milliy sug‘urta bozorini xalqaro va xorijiy sug‘urta bozorlari bilan integratsiyalash orqali oshirish lozim.

## Adabiyotlar

1. “Sug‘urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug‘urtasi sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sug‘urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug‘urtasi sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5265-qarori
3. O‘zbekiston respublikasi prezidentining 2020 yil 19 martdagи “Korona virusga qarshi choralar va global inqiroz huquqlarini nazorat qilish tarmoqlariga salbiymi yumshatish birinchi navbatdagi choratadbirlar”gi PF-5969-sonli farmoni
4. N.Jumaev. “O‘zbekistonning reytinglardagi o‘rni nima uchun kerak?”, „xalq so‘zi“ gazetasi.
5. Karakulova I. "Fondi garantirovaniya viplat za dogovorami strakhovaniya zhizni": zarubezhny dohod // Ekonomika 133/2012. p. 48
6. Averchenko O.D. The guarantee scheme of mutual exchange in the strakovo sectori bankovskoy sphere // Financial Journal. No. 4 2016. p. 110